QASHQADARYO VILOYATI MIRISHKOR TUMANI HOKIMINING QARORI

181000 O'zbekiston Respublikasi Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumani Yangi Mirishkor shaharchasi, tel: 652-18-58, 652-10-34, faks-652-14-65, 652-19-48

2022 - yil 31 - avgust 280-4-63-Q/22 Mirishkor tuman hokimligi

Mirishkor tumani hududidan o'tuvchi umumfoydalanuv avtomobil yo'llarida yo'l belgilari o'rnatish to'g'risida

Tuman hududidan o'tuvchi umumfoydalanuv avtomobil yo'llarida avtomobillar yo'llarida harakat xavfsizligini ta'minlash maqsadida, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-son qarori, O'zbekiston Respublikasi "Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida" gi qonuni 7-moddasi hamda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida" gi Qonunning 6-moddasiga asosan

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Mirishkor tuman hududidan o'tuvchi umumfoydalanuv avtomobil yo'llarida qarorga ilovada ko'rsatilgan belgilarni o'rnatish hamda avtomobil yo'llarida nazorat qilish tuman IIB YXXG raxbari kapitanY.Xamroyev zimmasiga yuklatilsin.

2. Mirishkor tuman yullardan foydalanish unitar korxonasi direktori Y.Jalolov avtomobil yo'lida qurilish-ta'mirlash ishlarini yakunlash, saqlash ishlarini nazorat qilish xamda avtomobil yulidagi transport vositalarini uzluksiz va xavfsiz holda harakatlanishini ta'minlasin.

3. Tuman hokimining 2022-yil 30-maydagi 162-4-63-Q/22-son qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

4. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari, qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari A.Eshmurodov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Sh.Ch.Sanayev**

Mirishkor tuman hokimining
2022 yil 31 avgustdagi
280-4-63-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Янги Миришкор шахарчаси Миришкор туман “Йўллардан фойдаланиш унитар корхонаси” ҳисобидаги кўчаларга ўрнатилган йўл белгилари дислокацияси.

Т/р	Йўл белгилари номи	Жойлаштириш жойи (км)	Сони (дона)
1	Юк автомобилларни ҳаракатланиши тақиқланади 3.4	4к325б “Миришкор туман марказига кириш” а/й 0-2-3 км	3
2	Тўхтамасдан ҳаракатланиш тақиқланади 2.5	4к 278б “Қарши Касби” а/й 6-7 км	2
3	Тўхташ тақиқланади 3.27	4Р92 “Қарши-Талликўрғон-Касби-Жейнов-Помуқ” а/й 69 км	1
4	Тўхташ тақиқланади 3.27	4к346 “Жейнов-Қамаши” а/й 0 км	1
5	Тўхташ тақиқланади 3.27	4Р92 “Қарши-Талликўрғон-Касби-Жейнов-Помуқ” а/й 49 км	2
6	Юк автомобилларни ҳаракатланиши тақиқланади 3.4	4Р97 “Муборак-Аланг-Нишон” а/й	2